

# **Markaziy bank tomonidan “Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha keys-chempionat”ni o‘tkazish QOIDALARI**

## **1. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Ushbu hujjat moliyaviy savodxonlik bo‘yicha o‘tkaziladigan keys-chempionatni (bundan buyon matnda – Keys-chempionat) tashkil etish va o‘tkazishni tartibga soladi.

1.2. Keys-chempionat yoshlar e'tiborini moliyaviy savodxonlikka jalb etish maqsadida Markaziy Bank tomonidan intellektual musobaqa tarzida o‘tkaziladi.

1.3. Keys-chempionat Finlit.uz veb-saytida keys-masalalarni joylashtirib borish orqali o‘tkaziladi.

1.4. Keys-chempionat – bu belgilangan muddat ichida ma'lum bir guruh uchun moslashtirilgan biznes muammo (keys) larga ishtirokchilar o‘z jamoasi bilan kelishgan holda yechim taklif etadigan bellashuv hisoblanadi.

1.5. Keys-chempionatda moliyaviy savodxonlik bo‘yicha intellektual bellashuvlarda maksimal ball to‘plagan g‘oliblar aniqlanadi.

## **2. KEYS-CHEMPIONAT MAQSADI**

Keys-chempionat maqsadi talabalarning moliyaviy savodxonlik, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish, ta'lim va tadqiqot yo‘nalishidagi ishlarini rag‘batlantirishdan iborat. Shu orqali quyidagi masalalar o‘z yechimini topadi:

- oliy o‘quv yurti talabalari o‘rtasida moliyaviy savodxonlikni targ‘ib qilish hamda ularning moliya sohasidagi bilimlarini oshirish;
- moliyaviy savodxonlik sohasida talabalarning ko‘nikmalarini hosil qilish.

## **3. KEYS-CHEMPIONAT TASHKILOTCHISI**

Keys-chempionat tashkilotchisi:

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki – Moliyaviy savodxonlikni oshirish va bank mutaxassislarini qayta tayyorlash departamenti.

#### **4. KEYS-CHEMPIONAT ISHTIROKCHILARI**

Ushbu chempionat oliy ta'lim muassasalari 1-4 bosqich talabalari o'rtasida o'tkaziladi.

Keys-chempionatga 3-5 kishidan iborat talabalar jamoalaridan arizalar qabul qilinadi. Jamoa tarkibini ishtirokchilar mustaqil belgilaydi. Jamoalar o'zlariga mustaqil ravishda nom o'ylab topishlari hamda ushbu nomni arizada ko'rsatishlari lozim.

Keys-chempionatda ishtirok etish uchun belgilangan tartibda onlayn-ariza to'ldirish lozim bo'ladi. Onlayn-ariza uchun havola Keys-chempionat anonsida joylashtiriladi.

Onlayn-ariza talabalar jamoasi lideri tomonidan bir marotaba yuboriladi. Talabalar faqat bir jamoa tarkibida ishtirok etishlari mumkin.

#### **5. KEYS-CHEMPIONATNI O'TKAZISH TARTIBI**

Finlit.uz veb-saytiga 8 oy mobaynida har oy 2 ta keys-masalalar joylashtirib boriladi (jami 16 ta keys).

Keys-chempionat tashkilotchilari tomonidan tematik keys-masalalar ishlab chiqiladi.

Keyslar joylashtirilgan kuni ro'yxatdan o'tgan va shakllantirilgan ishtirokchilar qatoriga kiruvchi jamoalarga elektron xabar yuboriladi va keyingi 7 kun ichida jamoalar keys bo'yicha javoblarini keys-chempionat elektron manziliga hujjat yoki taqdimot ko'rinishida yuborishlari lozim bo'ladi.

Keys javoblari bo'yicha taqdimot yoki hujjat asosida ekspertlar jamoasi yopiq yig'ilish o'tkazadi va baholaydi.

Har bir keys javoblari bo'yicha finlit.uz veb-saytida yakuniy jadval yuklab boriladi. Jadvalda jamoalar to'plagan ballariga asosan kamayib borish tartibida joylashtiriladi.

#### **6. KEYS-YECHIMLARNI BAHOLASH**

Keys javoblari ekspertlar va tashkilotchilar tomonidan quyidagi mezonlarga asosan 25 ballik shkalada baholanadi:

- javob mazmuni;
- tahlilning puxtaligi;
- yechim tuzilmasi va mantiqiy ketma-ketlik;
- javobning originalligi/innovasionlik;
- kreativ yondashuv.

Turnirda eng ko‘p ball to‘plagan jamoa Keys-chempionat g‘olibiga aylanadi.

## **7. KEYS-CHEMPIONAT TASHKILY QO‘MITASI VA EKSPERTLAR JAMOASI**

Keys-chempionat tashkiliy qo‘mitasi tarkibi Markaziy bank va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti xodimlaridan iborat bo‘ladi va quyidagilarni amalga oshiradi:

- ishtirokchilar arizalarini qabul qilish;
- har bir keys bo‘yicha baholash mezonlarini aniqlash hamda javoblarning tekshiruvini tashkillashtirish;
- Keys-chempionatni olib borish qoidalariga va shartlariga amal qilinishi ustidan nazorat o‘rnatish;
- Keys-chempionat g‘oliblarini taqdirlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Keys-chempionat to‘g‘risida doimiy axborot berib borish.

Keyslar bo‘yicha javoblarni tekshirish uchun O‘zbekiston Markaziy banki xodimlari va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti vakillaridan iborat ekspertlar guruhi tashkil etiladi.

Keys-chempionat tashkiliy qo‘mitasi 4-bandda ko‘rsatilgan talablarga javob bermaydigan shaxslarni ogohlantirishsiz ishtirokchilar ro‘yxatiga kiritmaslikka haqli.

## **8. KEYS-CHEMPIONATDA ISHTIROK ETISHGA ROZILIK HAMDA ISHTIROKCHILARDAN KERAKLI TASDIQLAR**

Keys-chempionat jarayonida ishtirokchilar haqida olingan ma'lumot va ular tomonidan yuborilgan ishlar tashkilotchi va uchinchi shaxslar tomonidan axborot va hisobot berish maqsadida, shuningdek Keys-chempionat bosh maqsadini amalga oshirishda (tanlov jarayonlarini e'lon qilib borish maqsadida khiso.uz veb-saytida, Markaziy bank ijtimoiy tarmoqlarida, moliyaviy savodxonlik bo‘yicha finlit.uz veb-saytidagi matbuot relizlarida) moliyaviy savodxonlik va moliyaviy xizmatlar iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalariga omma e'tiborini jalb qilish uchun istalgan shaklda foydalanish mumkin. Buning uchun ishtirokchiga qo‘shimcha haq to‘lanmaydi va ulardan ruxsat olinmaydi.

Keys-chempionatda ishtirok etish ishtirokchining Keys-chempionat qoidalarida belgilangan shartlarni o‘qib chiqqanligini va ularga rozi ekanligini anglatadi.

Keys-chempionat tashkiliy qo‘mitasi Keys-chempionat ishtirokchilari haqidagi qisman yoki to‘liq ma’lumotlarni nashr qilishga va ishtirokchilar tomonidan bajarilgan ishlardan tadqiqotlar olib borish maqsadida foydalanish huquqiga ega.

**Keys-chempionat turniri g‘oliblari uchun sovg‘a: Markaziy bankda  
3 oylik amaliyot o‘tash**

## **9. ARIZALARNI TAQDIM ETISH**

Keys-chempionat ishtirokchilari Finlit.uz saytidagi havola yordamida ro‘yxatdan o‘tishadi.

Savollar bo‘yicha quyidagi telefon raqamiga murojaat qilish mumkin:

+99871 212-73-56; +998 71 212-73-58.